

ISSN 1076-1077

# PEDAGOGIKA

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
ILMIY-NAZARIY  
VA METODIK JURNAL

1/2025

- PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,  
PEDAGOGIK INNOVATIKA
- MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY FANLAR TA'LIMI
- IJTIMOY VA GUMANITAR FANLAR TA'LIMI
- SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI
- XORIJIY TA'LIM TAJRIBALARI
- TA'LIMI TIZIMI YANGILIKLARI
- FAN VA TA'LIM FIDOYILARI
- MAKTABGACHA TA'LIM

# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK  
JURNAL

1/2025

**Bosh muharrir:**

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(bosh muharrir o'rinbosari)

**Tahrir hay'ati:**

Djurayev Risbay  
Ibragimova Gulnora  
Ibraimov Xolboy  
Abdullayeva Shaxzoda  
Djurayev Dusmurod  
Kamilova Nodira  
Quronov Muhammad  
Madjidova Dildora  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Nurmatov Abdumannop  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xaydarov Mamat  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.



# PEDAGOGIKA

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND  
METHODICAL JOURNAL

**1/2025**

---

**CHIEF EDITOR**

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(deputy editor-in-chief)

**EDITORIAL BOARD:**

Djurayev Risbay  
Ibragimova Gulnora  
Ibraimov Xolboy  
Abdullayeva Shaxzoda  
Djurayev Dusmurod  
Kamilova Nodira  
Quronov Muhammad  
Madjidova Dildora  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Nurmatov Abdumannop  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xaydarov Mamat  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

The founder: Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

The journal publishes scientific theoretical and methodological articles in Uzbek and Russian languages in the fields of pedagogics, psychology, teaching methods and technologies. The journal has been certified under № 02-004 on the state registration of the mass media from the Tashkent Press and Information Administration as of May 26, 2014 and was awarded the international standard number (ISSN) - 2010-5320 of periodical journals on the basis of the 511/S contract from the National Book Chamber of the Republic of Uzbekistan. The journal has been registered by the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № 201/3 as of December 30, 2013.

---

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA ULARNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARI TARIXI

*Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li, Chirchiq DPU dotsenti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida jamiyatning ma'naviy rivojlanishi va adolatli boshqaruvni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada adolatli boshqaruvning ahamiyati, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va uning jamiyat barqarorligidagi o'рни chuqur yoritilgan. Shuningdek, yoshlar ma'naviyati va axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, axloqiy qadriyatlar yosh avlodning kamoloti va jamiyat rivojlanishidagi o'rnini belgilaydi. Maqolada zamonaviy global muammolarga, jumladan, ekologik va ijtimoiy masalalarga ma'naviy yondashuv tavsiya etilib, insoniyatning kelajakdagi farovonligi uchun ma'naviy yetakchilik va axloqiy javobgarlik zarurligi ta'kidlanadi. Sharq mutafakkirlarining ta'limotlari asosida hozirgi jahon hamjamiyatida ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va adolatli boshqaruvni ta'minlashning dolzarbligi ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar:** *ijtimoiy-falsafiy qarashlar, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, global muammolar, ekologik muammolar, ijtimoiy adolat.*

## ИСТОРИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ И ИХ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ

*Ахмаджанов Дониёр Бахтиёр угли, доцент Чирчикского ГПУ*

**Аннотация.** В данной статье проанализированы вопросы духовного развития общества и формирования справедливого управления на основе социально-философских взглядов восточных мыслителей. В статье подробно освещено значение справедливого управления, становление гражданского общества и его роль в стабильности общества. Кроме того, особое внимание уделено духовности и нравственному воспитанию молодежи, нравственные ценности определяют место подрастающего поколения в созревании и развитии общества. В статье рекомендован духовный подход к современным глобальным проблемам, включая экологические и социальные, и подчеркнута необходимость духовного лидерства и моральной ответственности для будущего благополучия человечества. На основе учения восточных мыслителей показана актуальность укрепления духовных ценностей и обеспечения справедливого управления в современном мировом сообществе.

**Ключевые слова:** *социально-философские взгляды, нравственное воспитание, духовные ценности, гражданское общество, глобальные проблемы, экологические проблемы, социальная справедливость.*

## THE HISTORY OF EASTERN THINKERS AND THEIR SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS

*Akhmadzhanov Donir Bakhtiyor corner, associate professor of Chirchik SPU*

**Abstract.** This article analyzes the issues of the spiritual development of society and the formation of fair governance based on the socio-philosophical views of Eastern thinkers. The article highlights in detail the importance of fair governance, the formation of civil society and its role in the stability of society. Special attention is also paid to the spirituality and moral education of young people; moral values determine the place of the younger generation in the maturation and development of society. The article recommends a spiritual approach to modern global problems, including environmental and social ones, and emphasizes the need for spiritual leadership and moral responsibility for the future well-being of mankind. Based on the teachings of Eastern thinkers, the relevance of strengthening spiritual values and ensuring fair governance in the modern world community is shown.

**Key words:** *socio-philosophical views, moral education, spiritual values, civil society, global problems, environmental problems, social justice.*

**Kirish.** Sharq sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng boy madaniy va ilmiy merosga ega hodisalardan biri hisoblanadi. Sharq bir necha ming yilliklar davomida ilm-fan, falsafa, adabiyot, arxitektura, san'at va siyosat sohaslarida katta yutuqlarga erishgan. Sharq mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar nafaqat Sharq olami, balki G'arb dunyosida ham katta e'tibor qozongan. Ushbu mutafakkirlar inson, jamiyat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, boshqaruv va adolat kabi masalalarni chuqur tahlil qilib, insoniyatning umumiy ma'naviy taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular nafaqat jamiyatning tuzilishiga, balki inson ma'naviyatiga oid chuqur nazariy fikrlarini bildirganlar.

**Asosiy qism.** Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari jamiyatning ma'naviy yuksalishi va insonning shaxsiy kamolotini asos qilib olgan. Ular insonning axloqiy tarbiyasi jamiyatdagi barqarorlik va farovonlikning asosiy manbai ekanini ta'kidlaganlar. Mazkur mutafakkirlar o'z falsafiy qarashlarida inson va jamiyatning o'zaro bog'liqligi, inson kamolotining jamiyat rivojiga qanday ta'sir etishini muhokama qilganlar. Ular jamiyatning ma'naviy asoslarini shakllantirishda ilm va ma'rifatga katta ahamiyat qaratganlar. Sharq mutafakkirlarining fikrlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, zamonaviy jamiyatlarning axloqiy-etik tushunchalari va rivojlanish strategiyalari uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari nafaqat o'tmish davrlarida, balki hozirgi zamon jamiyatlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Ular inson ma'naviyatini rivojlantirish va jamiyatda barqarorlikni ta'minlash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning rivojlanishi, barqarorligi va adolatlilik boshqaruvini ta'minlashda ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim o'rinni tutadi. Sharq mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy ta'limotlar jamiyatda insonlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, adolatlilik boshqaruvni ta'minlash va jamiyatda barqarorlikni saqlashda muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Sharq mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar, xususan, ta'lim sohasida ham keng qo'llaniladi. Ular bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda, ularning yosh avlodga bilim va axloq-odob berishdagi mas'uliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Sharq mutafakkirlarining fikrlari inson kamolotini ta'minlash, uning ma'naviy-axloqiy qoidalarga amal qilishi va jamiyatda barqarorlikka erishish kabi masalalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari shakllanishida qadimgi sivilizatsiyalar - Misr, Vavilon, Hindiston va Xitoy kabi madaniyatlarning roli katta bo'lgan. Qadimgi Misrda jamiyat va davlat boshqaruvi, odillik va adolat kabi tushunchalarni shakllantirishga harakat qilingan. Vavilonidagi Hammurabi qonunlari esa, adolatlilik boshqaruv va jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni aniq qoidalar asosida belgilashga uringan dastlabki huquqiy tizimlardan biri edi. Bu sivilizatsiyalar ijtimoiy hayot va boshqaruv sohasidagi ilk fikrlarni shakllantirgan bo'lsa-da, ularning ta'siri Sharq falsafasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan [1].

Qadimgi Hindistonda esa, Upanishadlar va Vedalar falsafasi insonning ma'naviy rivojlanishiga, uning axloqiy qadriyatlariga katta ahamiyat bergan. Induizm va buddizm kabi diniy-falsafiy ta'limotlar insonni o'zining ichki dunyosi va ma'naviy kamolotga yetishga qaratilgan harakatlarning markazida ko'rsatgan. Insonning ma'naviy kamolotga yetishi jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Hind falsafasida jamiyatning asosiy vazifasi insonning ma'naviy tarbiyasi orqali farovonlik va barqarorlikni ta'minlash deb qaralgan. Bu fikrlar keyinchalik Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy va axloqiy qarashlariga ta'sir ko'rsatgan [2]. Sharq sivilizatsiyasining shakllanishidagi yana bir muhim element Xitoy falsafasi bo'lib, unda Konfutsiy va Lao-Szi kabi yirik mutafakkirlar ijtimoiy tartib, axloq va insonning ma'naviy rivojlanishi haqidagi fikrlarni ilgari surganlar. Konfutsiy o'zining ijtimoiy-axloqiy ta'limotida

jamiyatda har bir shaxs o'z o'mini bilishi, katta-kichikka hurmat va mas'uliyat hissi bilan munosabatda bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Bu qarashlar jamiyatda adolat, tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida ko'rilgan. Fors madaniyati ham Sharq falsafasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Zardushtiylik dini insonning axloqiy javobgarligi va ma'naviy komillikka yetishiga katta ahamiyat bergan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, har bir inson hayoti davomida yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi tanlovga duch keladi va uning ma'naviy yuksalishi ana shu tanlovga asoslanadi. Bu ta'limotda jamiyatning ma'naviy tuzilishi insonning shaxsiy axloqiy fazilatlari bilan bog'liq deb qaralgan. Fors falsafasi va zardushtiylik Sharq mutafakkirlari, ayniqsa, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ulardagi yaxshilik, yomonlik, adolat va ma'naviyat tushunchalari keyingi asrlardagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning rivojiga yo'l ochib bergan. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari shakllanishida Islom sivilizatsiyasining ta'siri beqiyosdir. Islom dini insonning ma'naviy rivojlanishiga, uning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatiga katta ahamiyat qaratadi. Qur'oni karimda insonning axloqiy fazilatlari, adolat, haqiqatga bo'lgan intilish va jamiyatdagi o'zaro hurmat kabi tushunchalar keng yoritilgan. Islom mutafakkirlari insonni oliy ma'naviy qadriyatlarga yetishish uchun ilm va ma'rifatga yo'naltirgan. Islom dunyosida yirik mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd va Al-G'azzoliy kabi olimlar nafaqat din, balki dunyoviy ilm va falsafa sohalarida ham katta ishlarni amalga oshirganlar. Ular jamiyatning ma'naviy tuzilishi va insonning axloqiy fazilatlari haqidagi fikrlarini din va falsafa bilan uyg'unlashtirganlar. Sharq mutafakkirlarining Islom falsafasidagi ta'siri eng katta ahamiyatga ega bo'lgan bosqichlardan biri hisoblanadi, chunki ular inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni diniy nuqtai nazardan tahlil qilganlar. Forobiy va Ibn Sino ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyat va davlat boshqaruvida fozillikni alohida ta'kidlab, boshqaruvchilarning axloqiy komilligi davlatning adolatli boshqarilishiga olib kelishi mumkinligini uqtirganlar. Ular fikricha, ma'naviy yetuklikka erishgan rahbarlar jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Sharq mutafakkirlari orasida Abu Nasr Forobiy ijtimoiy-falsafiy qarashlar rivojida muhim o'rin tutadi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida jamiyatni ma'naviy asoslar bo'yicha qurish va davlat boshqaruvida adolatga asoslangan tizim yaratish g'oyalarini ilgari surgan. Forobiyning fikricha, davlat boshlig'i ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo'lishi kerak, chunki bunday inson jamiyatni to'g'ri boshqarish va unda adolatni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Forobiyning ta'limotida jamiyatning ma'naviy asoslari, uning axloqiy rivojlanishi va davlatning adolatli boshqarilishi bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar sifatida ko'riladi [3, 158-b.]. Ibn Sino ham ijtimoiy-falsafiy qarashlarda inson tabiati, uning ma'naviy rivojlanishi va axloqiy fazilatlari jamiyatning rivojlanishi uchun muhim omil sifatida ko'rgan. Uning fikricha, ma'naviy jihatdan rivojlangan insonlar jamiyatning barqarorligi va adolatli boshqaruvi uchun zarur bo'lgan omildir [4, 56-b.]. Ibn Sinoning falsafiy fikrlarida axloq, ma'naviyat va inson tabiati chuqur yoritilgan bo'lib, bu qarashlar jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy qarashlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatning ma'naviy rivojlanishi, axloq-odob me'yorlarining mustahkamlanishi va adolatli boshqaruvning ta'minlanishi uchun muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-axloqiy ta'limotlar, xususan, ta'lim-tarbiya va ma'naviy yetuklikka erishish yo'lida zamonaviy jamiyatning muhim nazariy asoslaridan biri bo'lib qolmoqda. Axloqiy tarbiya inson kamolotining asosiy shartlaridan biri bo'lib, har bir jamiyatning barqarorligi va ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Axloqiy qadriyatlar jamiyatda adolatli munosabatlarning shakllanishi, insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va mas'uliyatning mustahkamlanishi uchun

muhim vosita hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari ta'limotida axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Ular axloqni insonning shaxsiy komillikka yetishuvidagi eng muhim omillardan biri sifatida ko'rishgan. Axloqiy tarbiya insonning nafaqat shaxsiy hayotiga, balki uning jamiyatdagi faoliyatiga ham kuchli ta'sir o'tkazadi. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Al-G'azzoliy, Navoiy kabi faylasuflar axloqiy tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlab, insonning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, axloqiy rivojlangan inson jamiyatning barqarorligi va adolatli boshqaruvni ta'minlashda faol ishtirok etadi. Axloqiy tarbiya yoshlarning shaxsiy rivojlanishidagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yoshlik davrida insonning axloqiy qarashlari shakllanadi, bu esa, uning kelajakdagi hayoti va jamiyatga qo'shadigan hissasiga katta ta'sir qiladi. Yoshlar ma'naviyatining mustahkamligi ularning shaxsiy hayotida va jamiyatda tutgan o'rnida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli axloqiy tarbiya jarayoni yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yoshlik davrida axloqiy tarbiya insonning hissiy va ruhiy olamiga katta ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy qadriyatlarga boy tarbiya ko'rgan yoshlar o'zlarini jamiyatning mas'uliyatli va axloqiy jihatdan rivojlangan fuqarolari sifatida his etadilar. Sharq mutafakkirlari ta'lim jarayonida axloq va ma'naviyatning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tganlar. Ular ta'limning asosiy maqsadi insonni nafaqat bilimli, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida tarbiyalash ekanligini ta'kidlashgan. Forobiy o'z asarlarida ta'lim va tarbiyaning ajralmasligi, insonni ma'rifatli qilibgina qo'ymay, uni axloqiy komillikka ham yetaklashini ta'kidlagan. Uning fikricha, ta'lim jarayonida axloqiy va ma'naviy qadriyatlar asosiy o'rin tutishi kerak. Chunki bilimsizlik jamiyatni tanazzulga yetaklasa, axloqsizlik uni barqarorlikdan mahrum qiladi [3, 214-b.]. Sharq mutafakkirlari ta'lim muassasalarining yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi roliga katta e'tibor qaratganlar. Ular ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni yoshlarga singdirishda ham katta mas'uliyatga ega ekanligini ta'kidlashgan. Hozirgi kunda ta'lim muassasalari yoshlarning axloqiy tarbiyasi va ma'naviy yuksalishi uchun markaziy o'rin tutadi. Sharq mutafakkirlari bu jarayonda tarbiya va ta'limning integratsiyasini alohida ta'kidlaganlar.

Bizningcha, ta'lim muassasalarida yoshlarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlash uchun axloqiy qadriyatlarga asoslangan dasturlar joriy qilinishi zarur. Yoshlar axloq-odob qoidalariga rioya qilish, ma'naviyatga intiluvchi va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishi uchun ta'lim muassasalarining vazifasi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, yoshlarning axloqiy-etik rivojlanishini ham ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Axloqiy tarbiya insonning ma'naviy yetuklikka erishishida muhim qadamlardan biridir. Sharq mutafakkirlari inson ma'naviyati va axloqini inson hayotining markaziy tushunchalari sifatida ko'rib, ularni rivojlantirishni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qabul qilganlar. Axloqiy tarbiya yoshlar ma'naviyatini boyitish va ularning shaxsiy hayotida, shuningdek, jamiyatda ham axloqiy qadriyatlarga sodiq insonlar sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlari ta'limotlarida jamiyatda ma'naviy qadriyatlarning mustahkamligi insonlar o'rtasidagi munosabatlarning asosi ekanligi ta'kidlangan. Ular jamiyatda insonlar axloq va ma'naviyat asosida faoliyat yuritsalar, jamiyat barqarorligi ta'minlanadi, deb hisoblaganlar. Ma'naviyatsizlik jamiyatning tanazzuliga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan mutafakkirlar insonlarning ma'naviy yuksalishi uchun axloqiy tarbiyaning zarurligini ham ta'kidlaganlar. Ma'naviyat va axloq insonlarning o'z o'rnini topishi, o'z vazifalarini ado etishi va jamiyatda tinchlik va barqarorlik o'rnatishning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Abu Nasr Forobiyning fozillik ta'limoti jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarning ahamiyatini alohida

ta'kidlaydi. Uning fikricha, fozil jamiyatning asosi – bu ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega insonlardir. Forobiyning ta'limotida jamiyatning muvaffaqiyati va barqarorligi insonlarning ma'naviy qadriyatlarga amal qilishi va axloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi [3, 223-b.]. Bu fikrlar hozirgi kunda ham jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ma'naviy yetuklikka erishgan jamiyatlar barqaror va tinchlikni saqlaydigan jamiyatlarga aylanadi. Yosh avlod har bir jamiyatning kelajagini belgilab beradi. Sharq mutafakkirlari yoshlarning ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanishini jamiyatning barqarorligi va rivoji uchun muhim deb bilganlar. Ular yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishni ta'kidlab, axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish zarurligini aytib o'tganlar. Yoshlar jamiyatning faol va mas'uliyatli fuqarolari bo'lib yetishishi uchun ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishi lozim. Ma'naviy qadriyatlarning yosh avlodga singdirilishi, ularning jamiyatda mas'uliyatli shaxslar sifatida rivojlanishiga turtki beradi. Yoshlar axloq-odob qoidalariga rioya qilib, ma'naviy qadriyatlarni o'zlarining hayotlarida qo'llashi orqali jamiyatda tinchlik va adolatni ta'minlaydilar. Ular o'zlarining shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirib, jamiyatga foydali insonlar bo'lib yetishadilar. Sharq mutafakkirlari ta'limotida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jamiyatning kelajagini belgilaydigan muhim omillardan biri ekanligi ta'kidlangan. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon jamiyatining turli madaniyat va qadriyatlar bilan birlashuvi natijasida an'anaviy ma'naviy qadriyatlar zaiflashishi mumkin. Shu sababli, Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan axloqiy-etik qoidalarni yosh avlodga singdirish va jamiyatning barqarorligini ta'minlashda ulardan foydalanish zarur. Ma'naviy qadriyatlarni globallashuv sharoitida saqlash yosh avlodning madaniyat va an'analarga bo'lgan hurmatini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda ta'lim muassasalarida axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan dasturlarni joriy qilish katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga yordam berish va ularni jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni saqlashga yo'naltirish kelajakda jamiyatning umumiy barqarorligini ta'minlaydi.

**Xulosa.** Bugungi kun dunyosida global muammolarning ko'lami kengayib, ularning yechimini topish barcha davlatlar va jamiyatlar uchun muhim vazifalardan biriga aylandi. Global muammolar ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalarni qamrab olgan bo'lib, ularga mos yechim topish uchun insonlarning axloqiy, ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda birgalikda ish olib borishlari zarur. Sharq mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy-etik qoidalar va ijtimoiy qarashlar bugungi global muammolarga nisbatan yondashuvni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

#### Adabiyotlar:

1. Курбонов У. Уйғониш даврининг хусусиятлари ва ижтимоий-фалсафий фикрлар ривожланиши // ARES. Vol. 4. Issue 9. 2023. - P. 292-298.
2. Мадалимов Т. Қадимги хинд фалсафавий манбаалари ва тадқиқот услублари // CARJIS. Vol. 2. Issue 2. 2022. - P. 83-86.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Т.: Янги аср авлоди, 2016.
4. Маънавият юлдузлари / Тузувчи ва масъул муҳаррир М.М.Хайруллаев. - Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999.

kompetentsiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	182	к условиям дошкольной образовательной организации.....	261
<b>Abdullayeva M.S.</b>		<b>Yembergenov D.T.</b>	
Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish usul va vositalari.....	185	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni moslashuvida daktil va imo-ishora nutqining ijobiy samarasi.....	268
<b>Boymatov B.X.</b>		<b>Muhitdinova D.U.</b>	
Tabiiy fanlar (science)ni o'qitishda 5E yondashuvi.....	188	Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni kommunikativ malakasini shakllantirish usullari.....	272
<b>Imomova M.</b>		<b>Muhammadiyeva X.D.</b>	
Raqamli tranformatsiya sharoitida 8-sinf biologiya ta'lim oluvchilarni kasnga yo'naltirish.....	192	Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar.....	276
<b>Akhmadjonova F.A.</b>		<b>Sirojiddinov I.I.</b>	
Ta'lim jarayonida ingliz tilini o'qitishdagi «Yozish» amaliyotining basqihlari.....	198	Yoshlarda ma'naviy-ahloqiy sifatlarni rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning roli.....	280
<b>Giyasova M.A.</b>		<b>Toxirov Sh.T.</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentsiyasini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	202	Bo'lajak o'qituvchilarda emotsional intellektni rivojlantirish pedagogik zaruriyat ekanligi.....	285
<b>Bakieva D.B.</b>		<b>Hamdanova S.R.</b>	
Organizing cooperative learning in english classes to improve reading comprehension skills of the primary school students.....	205	«Oila pedagogikasi» fani asosida talabalarda oilaviy qadriyatlariga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish mazmuni.....	288
<b>Кадирова Н.М.</b>		<b>Abdullayeva M.R.</b>	
Проявление лидерских качеств у дошкольников в различных видах деятельности.....	210	Pedagogik yo'nalishdagi talabalarining huquqiy kompetentsiyasini shakllantirish metodikasi.....	294
<b>Имамова Ч.Ш.</b>		<b>Солиев Н.С.</b>	
Современные подходы формирования правовой культуры у глухих старшеклассников.....	213	Совершенствование методики развития проектно-конструкторских компетенций у будущих инженеров на основе цифровых технологий.....	301
<b>Tohirova M.U.</b>		<b>Ли Куньлин</b>	
Ta'lim jarayonida «dunyoqarash» fenomenining ilmiy talqini va mazmuni mohiyati.....	218	Развитие теоретических, научных и практических знаний студентов об экологических кризисах, социально-природных проблемах.....	305
<b>Sulaymanova B.R.</b>		<b>Matyakubova N.A.</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentsiyalarini shakllantirishda yoshga oid hususiyatlari (ingliz tili fani misolida).....	222	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini TIMSS xalqaro baholash sinovlariga tayyorlash jarayonida o'quvchilarda kuzatiladigan psixologik xususiyatlar.....	310
<b>Vaxronova Z.R.</b>		<b>Kodirova N.A.</b>	
Muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llashda muammoli topshiriqni shakllantirishning nazariy asoslari.....	227	Yoshlarni turistik faoliyatga jalb etishning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	314
<b>Намазова Р.Д.</b>		<b>Rasulova M.A.</b>	
Роль самостоятельной работы студентов в образовательном процессе.....	231	Milliy ruh va vatanparvarlik – ona yurtga bo'lgan yuksak muhabbat ifodasidir.....	318
<b>Abdurazakova Z.A.</b>		<b>Tohirova M.U.</b>	
Talabalarda aksiologik munosabatlarni tarkib topirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ahamiyati.....	234	Ta'lim jarayonida «Dunyoqarash» fenomenining ilmiy talqini va mazmuni-mohiyati.....	322
<b>Vaxtiyorova U.U.</b>		<b>Esirgapova D.Q.</b>	
Oliy ta'lim jarayonida talabalarni bozor munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalarni baholash mezonlari va ularning statistik tahlili.....	238	Shaxs va individning asosiy xususiyatlari. Shaxsning rivojlanish boqichlari.....	326
<b>Jo'raqulov J.J.</b>		<b>Akmalova N.A.</b>	
Talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini immitasion modellar asosida takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni.....	242	Ta'lim, tarbiya va Vatanni Avloniycha ta'rifi.....	329
<b>Ramazonov J.E.</b>		<b>GUMANITAR VA IJTIMOY FANLAR TA'LIMI</b>	
Ichki ishlar organlari xodimlarida stressga chidamlik ko'nikmasiga egalikning ijtimoiy ahamiyati.....	246	<b>Ismatullayev F.O.</b>	
<b>Jabborova S.Z.</b>		Ilm-fan sohasidagi islohatlar va xalqaro hamkorlik....	332
Oilada 3-4 yoshli balalarni qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning metodi ta'minoti.....	250	<b>Sayfullayev B.N.</b>	
<b>Qo'ldasheva N.A.</b>		Tillar aloqalarining badiiy adabiyotdagi xususiyatlari (o'zbek va qozoq tillari mosolida).....	337
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan muloqot madaniyatining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari.....	254	<b>Raximbayeva D.V.</b>	
<b>Собирова Ш.У.</b>		O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda zamonaviy va an'anaviy usullar uyg'unligi.....	343
Задачи на конструирование детали как одно из средств развития пространственного представления.....	257	<b>Axmadjanov D.B.</b>	
<b>Абдурахманова М.М., Хасанова Ш.Т.</b>		Sharq mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-falsaviy qarashlari tarixi.....	346
Социально-психологическая адаптация детей к условиям дошкольной образовательной организации.....	261	<b>Asamatdinova J.R., Bekbergenov A.A.</b>	
		«Talabalarining millatlararo muloqot psixodidaktikasi» atamasidagi maxsus auditoriyadan tashqari mashg'ulot mazmuni.....	351
		<b>Sattorova F.E.</b>	
		The importance of the communicative skill in the english language.....	355
		<b>Мамчиц Н.Н.</b>	
		Изучение грамматических форм	

**MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY  
NAMED AFTER NIZAMI**

**PEDAGOGICA**

(scientific-theoretical and methodical journal)

№ 1

**МИНИСТЕРСТВО ДОШКОЛЬНОГО  
И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ**

**ПЕДАГОГИКА**

(научно-теоретический и методический журнал)

№ 1

**“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.**

**Mas’ul kotib – R.M.Medetova**

**Muharrirlar – M.X.Azizova, X.M.Tojiboyeva**

**Sahifalovchi – S.Pirmatov**

**Nashr ko’rsatkichlari:**

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077

Jurnal 2000-yildan boshlab chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2025-yil 20-fevral bosishga ruxsat etildi. 10-buyurtma.

Adadi – 105 nusxa. 26,6 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100<sup>1</sup>/<sub>16</sub> “Roboto” garniturasini.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nash” bo’limida bosildi.

100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko’chasi, 27-uy.